

BOLALARDA UCHRAYDIGAN QIZAMIQ KASALLIGINING KLINIK KO'RINISHLARI, PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH USULLARI.

Mahammadiyev Baxtiyor Faxriddin o'g'li.

Rasulova Lutfiya Lutfiddin qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabalari



Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan qizamiq kasaligining klinik ko'rinishlari va profilaktikasi davoladu usullari haqida

Kalit so'zlar: Etiologoya, qizamiq, virus, infeksi, prodroma davri, Paramiksovirus, atipik

Kirish: Umumiy intoksiatsiya, nafas yo'llari, ko'z, og'iz shilliq qavatlarning yallig'lanishi va terida dog'li toshma toshishi bilan kechadigan g'oyat yuqumli kasallik odamlar orasida ko'p uchraydi, lekin yoshi, irqi, yashash joyi va ijtimoiy kelib chiqishidan qa'tiy nazar hammada uchraydi.

Etiologiyasi – qo'zg'atuvchisi - virus tashqi muhit ta'siriga chidamsiz, lekin past temperaturaga chidamli, antibiotiklar ta'sir etmaydi, interferon ta'sirida tez nobud bo'ladi.

Infektsiya manbai bemor odam hisoblanadi. Sog'lom organizmiga virus nafas yo'llari orqali tushadi, ya'ni havo-tomchi bilan tarqaladi.

Klinikasi - qizamiq kechishida davriylik yaqqol seziladi. Xastalik kechishi 4 davrga bo'linadi. Yashirin, prodromal davri, toshma toshishi va yo'qolish davrlari. Yashirin davri o'rta hisobda 9-11 kun, ba'zan 3-4 haftagacha boradi. Bu davrda qisqa muddatli harorat ko'tarilishi, tumov alomatlari, ishtaha yo'qolishi va serxarxashalik alomatlari bo'lishi mumkin. Prodroma davrida kasallikka xos alomatlar paydo bo'ladi. Tana harorati ko'tariladi, bola lanj bo'ladi, ko'p yig'laydi, ishtahasi yo'qoladi, uyqusi buziladi, burun bo'shlig'i, nafas yo'llari, ko'z va og'iz shilliq pardasida kataral yallig'lanishi ro'y beradi, g'uv-g'uv yo'tal paydo bo'ladi, ovoz bo'g'ilib qoladi. Ko'z konyuktivasi yallig'lanadi, qizaradi, tomirlari kengayadi, yosh oqib turadi, bemor yorug'likka qaray olmaydi. 1-2 kundan keyin ko'z va burundan oqayotgan suyuqlik yiring aralash bo'ladi. Bemorning yuz-ko'zi, burun va lablari kerikadi, prodromaning 2-3 kunida og'izda, lunj shilliq qavatida mayda rangli,

nuqtasimon biroz bo'rtib turadigan toshmalar paydo bo'ladi. Ularning atrofi qizil gardish bilan qoplanadi.

Og'izda toshmalar paydo bo'lgan muddatda qattiq tanglay, murtak bezlari va halqumning orqa devorida enantema paydo bo'ladi. Toshma toshish davri 3-4 kun davom etadi. Bu davrda bolaning ahvoli yanada yomonlashadi, isitma ko'tariladi, shu davrda qizamiqqa juda xos bo'lgan teri toshmalari paydo bo'ladi. Toshma avval quloq orqasi va burun ustida paydo bo'lib, 24 soat ichida bosh, bo'yin, yuz va ko'krakning yuqori qismiga o'tadi. Ertasiga toshma butun tanaga, 3-kuni qo'l va oyoqlarga tarqaladi. Toshma ostidagi teri rangi o'zgarmaydi. Toshma dastlab dog' shaklida bo'ladi. Keyin u biroz kattalashib, teri yuzasidan ko'tarilib turadi.

Ba'zan toshmalar tutashib ketib, terining deyarli sog' joyi qolmaydi. Toshmalar lolaring bo'ladi, yaltirab turadi, ba'zan teri qichishadi. Toshmalar yo'qolishi davrida isitma tusha boshlaydi, bolaning ahvoli yaxshilana boradi, lataral alomatlar kamayib, yo'qoladi. Toshmalar qay tartibda toshgan bo'lsa, shu tartibda yo'qoladi. Dastlab toshma qo'ng'ir tus oladi va qavariqi yo'qoladi. Bunday dog' 1,5-3 haftadan so'ng butunlay yo'qolib ketadi. Toshmalar yo'qolish davrida kepaksimon po'st tashlash kuzatiladi. Bunday po'stloqchalar ayniqsa yuz, bo'yin va tanadan ko'p to'kiladi. Kaft va tovonda hech qachon bo'lmaydi. O'pka shamollashi qizamiq kasalligida eng ko'p uchraydigan asoratlardan hisoblanadi.

Qizamiq (lot. Morbili) — o'tkir infektsion virusli infektsiya bo'lib, o'ta yuqumli hisoblanadi. Kasallik belgilari yuqori isitma, xarakterli toshma, tomoq og'rig'i, yo'tal, organizmning jiddiy intoksikatsiyasi bilan namoyon bo'ladi. Qizamiq bilan har qanday bola, hatto kattalar ham xastalanishi mumkin. Bunda kasallik og'ir kechishi, asoratlar chaqirishi va ba'zan o'limga olib kelishi ehtimoli mavjud. Ushbu kasallik har yili butun dunyo bo'ylab 150 ming kishi, asosan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarning umriga zomin bo'ladi. Shu bois, har bir kishi, ayniqsa, yosh bolalarning ota-onasi qizamiq qanday kasallik ekanligini yaxshi bilishlari kerak.

Kasallik sabablari

Infektsiya manbai bemor kishi sanaladi. Virus havo-tomchi yo'l bilan o'tadi va juda yuqumli hisoblanadi. Kasallik qo'zg'atuvchisi paramiksoviruslar oilasi, morbilliviruslar avlodiga oid RNK-virusdir. Paramiksovirus organizm tashqarisida beqaror bo'lib, ultrabinafsha nurlari, past namlik ta'sirida tezda nobud bo'ladi, lekin quyi haroratda (-70 °C) saqlanib turish xususiyatiga ega.

Yuqish yo'llari.

Qizamiq bilan mavsumiy ravishda — okytabrdan aprel oyigacha kasallanish — odamlar bu mavsumda ko'proq yopiq xonalarda to'planib o'tirishlari bilan bog'liq. Bolalarning infektsiyalanishi ko'pincha bog'chalarda sodir bo'ladi. Virus tashqi muhitga chidamsizligi tufayli uchinchi shaxslar orqali kasallanish holatlari juda kam.

Infektsiya qo'zg'atuvchisi bemordan sog'lom odamga havo-tomchi yo'l orqali uzatiladi. Kasallikning toshma toshishiga 3-4 kun qolgan muddatida (inkubatsion davrda) virus faol ravishda tarqala boshlaydi. Bu vaqtda kasallikning klinik belgilari kuzatilmasligi sog'lom odamlarning ehtiyyot choralarini ko'rmasliklariga sabab bo'ladi. Umumiy ravishda kasallangan bemor atrofdagilar uchun 7-10 kun davomida xavfli sanaladi. Vaktsina olmagan kishilar bemor bilan yaqin aloqada bo'lishda infektsiyalanish ehtimoli deyarli 100% ni tashkil etadi. Qo'zga'tuvchi shuningdek havo yo'llari orqali uzoq masofalarga tarqalishi mumkin, masalan, zinapoyalar, ko'p qavatli uylarda shamollatish shaxtlari orqali va hokazo. So'nggi o'n yillikda rejalshtirilgan vaktsinasiya joriy etilishi natijasida bolalarda kasallanish ko'rsatkichi sezilarli darajada kamaydi, ammo aholining katta yoshli qismi orasida paramiksovirusga qarshi immunitetga ega bo'limganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu kattalar orasida kasallanishlar ko'pligi, shuningdek qizamiq bachardon ichida onadan bolaga o'tishi holatlarini keltirib chiqarmoqda.

Agar odam kasallikka chalinib, tuzalib ketgan bo'lsa, unda umrining qolgan qismiga qadar doimiy immunitet shakllanadi va takroriy kasallanish ehtimoli juda kam. Qayta kasallanish holati odatda immunitet tanqisligi bilan bog'liq bo'ladi.

Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarda qizamiq bilan kasallanish odatda onada paromiksovirusga qarshi tabiiy yoki vaktsina hisobiga hosil bo'lgan immunitet mavjud bo'limganda kuzatiladi. Chaqaloqlar uchun kasallikning xavfi hisobga olinib, homiladorlikni rejalshtirish davrida ayollarga paramiksovirusga qarshi vaktsina olish tavsiya qilinadi.

Inkubatsion davr

Qizamiq qo'zg'atuvchisi inson organizmiga nafas yo'llarining shilliq qavatlari va ko'rish a'zolari orqali kiradi. Virus kirganidan uch kun o'tgach, paramiksovirus qon oqimiga o'tadi, limfa tugunlari orqali tarqaladi va taloqda cho'kadi, u yerda inkubatsiya davri davomida (7-17 kun) qon oqimida faol ravishda ko'payadi. Virusning inkubatsiya davri tugagach, yangi hosil qilingan viruslar butun organizm bo'ylab tarqalib, teri, kon'yuktiva, oshqozon-ichak trakti a'zolari, nafas olish va asab tizimini shikastlaydi.

Qizamiq alomatlari

Qizamiq alomatlari kattalar va bolalar organizmining yetukligi, fiziologik jarayonlarning farqi va immunitetning shakllanganligi nuqtai nazaridan farq qiladi. Kattalarda kasallik ko'pincha bolalardagi nisbatan og'irroq kechadi.

Bolalarda

Bolalarda belgilar kasallikning davriga qarab farq qiladi. Kataral belgilar va umumiy intoksikatsiya bilan ifodalanadigan dastlabki davr 3-5 kun davom etadi.

Qizamiqning kataral davridan so'ng terida xarakterli qizamiq toshmalari toshishi davri keladi. Toshma kasallik manifestatsiyasidan 3-4 kun o'tgach, birinchi navbatda

yuzning old qismida paydo bo'ladi. Keyinchalik u bo'yin, gavdaning yuqori qismiga tarqaladi va asta-sekin butun tanani, shu jumladan, qo'l-oyoqlarni qoplab oladi. Qizamiq toshmalari dog'li-papulyoz ekzantema deb nomlanadi. U teri sathidan ko'tarilib turuvchi noto'g'ri shakldagi pushti tugunchalar ko'rinishida bo'ladi. Papulalar qizil dog'lar bilan o'rab olingan bo'lib, bir-biri bilan birlashishga moyil bo'ladi. Bu davrda umumiyligi intoksikatsiya bosh og'rig'i va isitma bilan namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, ekzantemada yo'tal va tumovning kuchayishi kuzatiladi. Bu muddatning davomiyligi 4-5 kunni tashkil etadi, shundan so'ng dog'lar oqaradi, rangi o'zgaradi, hajmi kichrayadi. Bemorning ahvoli yaxshilanadi, virusning yuqumliligi kamayadi.

Qizamiqning keyingi davriga teri pigmentatsiyasi hamrohlik qiladi.

Toshma rangining o'zgarishi Ekzantema boshlanganidan 5 kun o'tgach, melanin to'planishi natijasida papulyoz tugunlar o'rnida och jiggarrang dog'lar paydo bo'ladi («iflos teri» deb nom olgan hodisa).

Epidermis qipiqlanishi; Toshmalar hududida muguz epiteliyining o'lik hujayralari to'kila boshlaydi.

Umumiyligi ahvolning yaxshilanishi; Tana haroratining normallashishi, organizm qizamiqqa qarshi antitanalar ishlab chiqarishi natijasida kataral hodisalarining zaiflashuvi.

Ushbu davr 7-10 kun davom etadi va asoratlar bo'lmasa, shifo topish bilan tugaydi.

Qizamiqning atipik shakllari

Qizamiqning odatiy klinik ko'rinishida barcha xarakterli belgilari saqlanib qolsa, atipik shakllarida alomatlar farq qilishi mumkin, xususan:

Zaiflashgan shakl. Bu kasallikning inkubatsion davrida profilaktik muolajalarini (immunoglobulin, steroid gormonlar kiritish, qon, immunitetli donorlar plazmasi quyish va boshqalar) o'tagan bemorlar uchun xosdir. Bunday holda inkubatsiya muddati 21 kungacha uzayishi mumkin. Bu shaklda alomatlar aniq ifodalanmaydi. Tana harorati normal bo'lishi yoki subfebril darajagacha ko'tarilishi mumkin. Toshma vaqtqi qisqaradi, shilliq qavatlarda toshmalar mavjud bo'lmaydi, ekzantema oqimtir bo'ladi. Kasallik tezda va asoratlarsiz o'tib ketadi.

Abortiv shakl. Bu shakl odatiy qizamiq infektsiyasi kabi boshlanadi, ammo 2-3 kun o'tgach kasallikning klinik belgilari yo'qoladi. Gipertermiya faqat birinchi kuni sodir bo'ladi, undan keyin harorat normal darajaga qaytadi. Toshma asosan yuz qismida va gavdaning yuqori qismida bo'ladi.

Xira shakl. Bu vaktsinatsiya olgan bemorlar uchun ko'proq xos. Alomatlar aniq ifodalanmaydi, bemor tezda va asoratlarsiz shifo topadi.

Asimptomatik shakl. O'ziga xos alomatlar kuzatilmasligi bilan ajralib turadi va faqat qonni immunoglobulinlar uchun laborotoriya tahlili natijasida aniqlanadi.

Og'irlashgan shakl kamdan-kam uchraydi. Organizmning kuchli intoksikatsiyasi, gemorragik sindrom bilan kechadi, ko'pincha kattalar uchun xos sanaladi.

Tashxislash

Ko'pgina hollarda qizamiq infektsiyasining aniq klinik ko'rinishi mavjudligi vizual ko'rikdan keyinoq tashxis qo'yish imkonini beradi. Biroq, kasallikning dastlabki bosqichlarida, yengil yoki atipik shaklida, shuningdek boshqa infektsiya qo'shilishida toshma toshishi o'xhash bo'lgan skarlatina, qizilcha va infektsion eritema kabi kasallikkarda differentsion tashxis talab etilishi mumkin.

Laboratoriya diagnostikasida virusologik va serologik usullar qo'llaniladi:

Virologik usulda o'rganish uchun material buruh-halqum surtmasi, ko'z ajralmalari, peshob sanaladi. Biologik materialda virus mavjudligini aniqlash uchun immunoflyuorestsent, faza-kontrast va flyuorestsent mikroskopiya amalga oshiriladi. Serologik usulda agglyutinatsiya reaktsiyasini, komplement bog'lanishi va boshqalarga murojaat qilinadi. Tahlil ikki marta amalga oshiriladi: kasallikning boshida va ikki haftadan so'ng. Antitana titrinining 4 yoki undan ortiq martaga oshishi qizamiqqa tashxis qo'yish mezoni sifatida xizmat qiladi.

Qo'shimcha tadqiqotlar kasallikning rivojlanish xususiyati va asoratlar yuzaga kelishini aniqlashga imkon beradi. Ko'pincha terapiyani nazorat qilish va tuzatish uchun siyidik tahlili buyuriladi. Agar kasallikning asorati sifatida o'pka yallig'lanishiga shubha qilinadigan bo'lsa, ko'krak qafasi a'zolarining rentgenologik tekshiruvi talab qilinadi.

Profilaktikasi. Har bir bola 9 va 16 oyligida qizamiqqa qarshi. vaktsina olishi lozim. Agar bemor aniqlansa, alohidalanadi, u bilan muloqatda bo'lganlar 17 kun tibbiy ko'rikda bo'ladilar, gammaglobulin olgan bolalar 21 kun kuzatuvda bo'ladilar, bog'chaga qabul qilinmaydilar. Emlanmagan bolalar gammaglobulin oladilar.

Qizamiqni davolash

Bugungi kunda aynan paramiksovirusga qarshi kurashga qaratilgan o'ziga xos terapiya mavjud emas. Davolash alomatlar jiddiyligini kamaytirish, asoratlarning oldini olish yoki tuzatishga asoslangan bo'ladi. Kasallik boshlangach, dastlabki 7-10 kun davomida yotoq tartibga amal qilish, sut-sabzavotli parhezga rioya etish katta ahamiyatga ega. Taomnomadan achchiq, yog'li, qovurilgan, oshqozon-ichak traktining shilliq qavatini qo'zgatish xususiyatiga ega boshqa mahsulotlar chiqarib tashlanadi. Bemorda isitma, tez-tez hojat chiqarish, ich ketishi inobatga olinsa, yetarli miqdorda suyuqlik ichish muhim o'rinn tutadi. Zarurat tug'ilganda elektrolitli eritmalardan foydalilanildi. A vitamini yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda kasallik sezilarli darajada og'irroq kechishi ma'lum. Shuning uchun mono- yoki multivitamin buyurilishi qizamiqni

davolashning bir qismi sanaladi, agar siz chaqalog'ingiz yoki bolangizga to'liq emlashdan oldin yuqtirilishidan xavotirda bo'lsangiz (oxirgi doz 4-6 yoshda berilganini unutmang), xavotir olmang. Agar ular virusga duch kelsa va dastlabki 72 soat ichida favqulodda vaziyatda emlangan bo'lsa, kasallikdan saqlanish mumkin. Va agar u hali ham paydo bo'lsa, odatda yumshoqroq bo'ladi.

Ammo agar hammamiz emlansak, infektsiyalarni yuqtirib bo'lmaydi. Agar siz farzandlaringizni emlamaslikka qaror qilsangiz, siz ularni nafaqat o'lik xavf ostiga qo'yasiz, balki boshqa ko'plab bolalarning o'limiga olib kelishi mumkin. Bu mavzuda biz aniq gapirishimiz kerak. Qizamiq - o'lik kasallik, uni yo'q qilish mumkin emas. Biz bilan qoling. Va faqat emlash bilan biz o'zimizni undan himoya qila olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Закирходжаев А.Х. Детские инфекционные болезни-Т.,2008
2. Учайкин.В.Ф.Инфекционные болезни у детей -М.,1998
3. Даминов.Т.А,Таджиев.У.Н. Коръ-Ташкент 2005